


## YALPI ICHKI MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilning yanvar – iyunida O'zbekiston Respublikasi YaIM hajmi joriy narxlarda 222 022,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar – iyun bilan taqqoslaganda 5,8 % ga o'sdi. YaIM deflyatori indeksi 2018 yilning yanvar – iyunidagi narxlarga nisbatan 119,6 % ni tashkil etdi.


*YaIM - iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o'lchanadigan Milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichlaridir.*

2017 – 2019 yillar uchun yanvar – iyun holatiga YaIM fizik hajmi va deflyatori indeksi dinamikasi quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da).




Aholi jon boshiga hisoblangan YaIM 6 649 ming so`mni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 % ga o`sdi.

**Yanvar - iyun holatiga aholi jon boshiga YaIM hajmi**  
(joriy narxlarda, ming so`m)



**Yanvar-iyun holatiga aholi jon boshiga YaIM o`shish sur`atlari**  
(o`tgan yilning mos davriga nisbatan% da)




Yanvar – iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha YaIMni ishlab chiqarish quyidagi ma`lumotlar bilan ifodalanadi:

	<i>Mrd. so`m</i>		<i>Fizik hajm indeksi, %</i>	<i>YaIM o`shidagi hissi, %</i>
	<i>2018 yil</i>	<i>2019 yil</i>		
<b>YaIM – jami</b>	<b>175 367,5</b>	<b>222 022,0</b>	<b>105,8</b>	<b>5,8</b>
<i>shu jumladan:</i>				
<b>Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati (YaQQ)</b>	<b>153 273,9</b>	<b>199 857,5</b>	<b>105,8</b>	<b>5,1</b>
qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi	41 767,0	48 552,4	102,1	0,5
sanoat	41 548,5	60 601,6	106,9	1,6
qurilish	11 226,7	15 215,9	120,0	1,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	12 178,2	14 360,7	104,1	0,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	14 170,4	16 401,6	105,1	0,4
boshqa xizmat tarmoqlari	32 383,1	44 725,3	105,4	1,0
<b>Mahsulotlarga sof soliqlar</b>	<b>22 093,6</b>	<b>22 164,5</b>	<b>105,9</b>	<b>0,7</b>


O`tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda YaIM (YaQQ) tarmoqlari tarkibida qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining ulushi 27,3 % dan 24,3 % ga kamaydi, sanoatning ulushi 27,1 % dan 30,3 % ga, qurilishning ulushi 7,3 % dan 7,6 % ga o`sdi.

Xizmatlar sohasining YaIM (YaQQ) tarkibidagi ulushi 37,8 % ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 0,5 f.p. ga kamaydi.

**Yanvar – iyun oylarida YalMning tarmoqlar bo`yicha tarkibi**  
*(jamiga nisbatan % da)*  
**2018 yil**




**2019 yil**



Iqtisodiy o`shish sur`ati iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy dinamika bilan bog`liqdir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat hajmi YaIM umumiy hajmining 90,0 % ini tashkil etdi va 5,8 % ga o`sdi (YaIM mutloq o`shishiga ta`siri 5,1 f.p.) ni tashkil etdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 10,0 % ni tashkil etdi va 5,9 % darajasida o`shish qayd etildi (YaIM mutloq o`shishiga ta`siri 0,7 f.p.).

**2019 yil yanvar – iyun oylarida**  
**YaIM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha o`shish sur`atlari**  
*(2018 yilning yanvar – iyuniga nisbatan % da)*




2019 yilning yanvar – iyuni yakunlariga ko`ra, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida 2,1 % darajasida ijobiy o`shish qayd etildi. Mazkur tarmoqning YaIM mutloq o`shish sur`atiga ta`siri 0,5 f.p. ni tashkil etdi. Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida ijobiy o`shish dehqonchilikda 3,2 % ga va chorvachilikda 1,7 % ga o`shish hisobiga ta`minlandi.

Sanoat tarmog`ining qo`shilgan qiymatida 6,9 % ga o`shish qayd etildi. Sanoat ishlab chiqarishining YaIM mutloq o`shish sur`atiga ijobiy ta`siri 1,6 f.p. darajasida baholandi. Sanoat tarmog`idagi ijobiy dinamika tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog`i qo`shilgan qiymatining 4,7 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat tarmog`i qo`shilgan qiymatining 7,8 % ga va boshqa sanoat tarmoqlarining 4,0 % ga o`shishi hisobiga ta`minlandi.

## Yanvar – iyun oylarida sanoat tarmog`ining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi

	<i>Mlrd. so`m</i>		<i>Fizik hajm indeksi, %</i>
	<i>2018 yil</i>	<i>2019 yil</i>	
<b>Sanoat</b>	<b>41 548,5</b>	<b>60 601,6</b>	<b>106,9</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	9 090,9	13 435,1	104,7
ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat	29 593,1	42 286,0	107,8
sanoatning boshqa tarmoqlari	2 864,5	4 880,5	104,0

## Yanvar – iyun oylarida sanoat tarmog`ining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2019 yilning yanvar – iyuni yakunlari bo'yicha, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati qo'shilgan qiymati tarkibida eng katta ulush metallurgiya va metallni qayta ishlash sanoatiga (mashina va uskunalardan tashqari) to'g'ri keldi va 34,6 % ni tashkil etdi. Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 14,5 %, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish – 14,4 %, rezina, plastmassa buyumlar va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 10,0 %, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – 8,0 %, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar hamda boshqa transport uskunalarini ishlab chiqarish – 5,9 %, elektr uskunalar ishlab chiqarish – 2,6 %, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – 2,5 % va Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining boshqa mahsulotlarini ishlab chiqarish – 7,5 % ni tashkil qildi.

**Yanvar – iyun oylarida ishlab chiqaradigan  
(qayta ishlash) sanoat yalpi qo`shilgan qiymatining tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**

	<i>2018 yil</i>	<i>2019 yil</i>
<b>Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	15,6	14,5
To'qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	15,9	14,4
Yog'och va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish; yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	2,4	2,0
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	1,8	2,5
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	9,3	8,0
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	1,2	1,2

	<i>2018 yil</i>	<i>2019 yil</i>
Rezina va plastmassa buyumlar va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	11,9	10,0
Metallurgiya va metalni qayta ishlash sanoati (mashina va uskunalardan tashqari)	28,6	34,6
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	0,5	0,5
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	2,4	2,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	2,1	1,2
Avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish	5,4	5,9
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish; mashina va uskunalarni ta'mirlash hamda o'rnatish	2,9	2,6


Ko'p kvartirali turar joy binolarini qurish, ijtimoiy soha obyektlarini qurish va kapital rekonstruksiya qilish, shuningdek, sanoatning bazaviy tarmoqlari korxonalarini qurish va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar natijasida qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,0 foizga o'sdi. Qurilish tarmog'ining YalM o'sishidagi ijobiy hissasi 1,3 f.p. darajasida baholanmoqda.

2019 yil yanvar-iyun oylarida xizmat ko'rsatish sohasining yalpi qo'shilgan qiymati hajmi 75 487,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,1 % ga o'sdi (YalM o'sishidagi hissasi 1,7 f.p. ni tashkil etdi). Shundan, savdo xizmatlari (avtotransport vositalarini ta'mirlashni qo'shgan holda) 3,8 % ga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 6,4% ga, tashish va saqlash 4,3 % ga, axborot va aloqa xizmatlari 7,7 % ga va xizmatlar sohasining boshqa tarmoqlari 5,4 % ga o'sdi.




Savdo (avtotransport vositalarini ta'mirlashni qo'shgan holda) tarmog'ining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibida eng katta ulush chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari) ga to'g'ri keldi va 67,6 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari) ning ulushi 26,3 % ni, avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta'mirlash 6,1 % ni tashkil etgan.

**Yanvar-iyun holatiga savdo tarmog'ining (avtotransport vositalarini ta'mirlashni qo'shgan holda) qo'shilgan qiymati tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)




Tashish va saqlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibida eng ko'p ulush avtomobil transportiga to'g'ri keldi va 52,7 % ni tashkil etdi. Sohaning umumiy qo'shilgan qiymatida quvur transportining ulushi 18,9 %, temir yo'l transportining ulushi 12,2 %, yordamchi transport faoliyatining ulushi 9,8 % va havo transportining ulushi 6,4 % ni tashkil etdi.

**Yanvar-iyun holatiga tashish va saqlash  
tarmog`ining qo`shilgan qiymati tarkibi**  
(jamiga nisbatan % da)



**2019 yilning yanvar – iyun oylarida  
YaIM o`shishida tarmoqlarning hissasi**  
(jamiga nisbatan % da)



2019 yilning yanvar – iyunida YaIM deflyatori indeksi 2018 yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 119,6 % ni tashkil etdi. YaIM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida (136,5 %) va boshqa xizmat tarmoqlarida (131,0 %) qayd etildi.

Respublikaning o'rtacha darajasidan past bo'lgan deflyator indeksleri qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (113,8 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (113,3 %), qurilishda (113,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqada (110,1 %) va mahsulotlarga sof soliqlarda (94,7 %) qayd etildi.

**2019 yilning yanvar – iyun oylarida**  
**YaIM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
*(2018 yilning yanvar – iyuniga nisbatan % da)*

